

## YOSHLARNI ISH BILAN TA`MINLASHDAGI YANGILLIKLAR, ISHSIZLIKNI OLDINI OLISH VA BANDLIKKA KO`MAKLASHISH CHORA TADBIRLARI

*Qashqadaryo viloyati yuridik texnikumi 2-kurs talabasi  
Tillayeva Nafisa Sirojiddinovna*

**ANNOTATSIYA:** Bu yildan yoshlarimizga bo`lgan e`tibor, bosh qomusimiz O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aynan fuqarolarning bandligini ta`minlash, kambag`allikni qisqartirish choralariга doir moddalar mavjudligi, Prezidentimizning ishsizlikni oldini olish yo`lida amalga oshirgan chora tadbirlari va unga doir huquqiy qonun va farmoishlar. Jahon bankining “Ayollar, beznesi va qonun” indeksida o`z reytingi. Mamlakatimizdagi ishsizlik foizlari va ularni qisqartirishdagi amallar, ishsizlik uning oldini olish borasida taklif va fikrlar bayon qilindi.

**KALIT SO`ZLAR:** Konstitutsiyaviy moddalar, prezidentimiz nutqlari, farmoishlari, strategiya, ishsizlik foizlari, sifatli ta`lim, yoshlarga berilgan imtiyozlar, beznis va tadbirkorlik.

**Аннотация:** Внимание к нашей молодежи в этом году, наличие в конституции Республики Узбекистан статей о мерах по обеспечению бедности мерах, принимаемых Президентом по предотвращению безработицы и связанных с ними правовых мерах законодательных и нормативных актах. Рейтинг всемирного банка в индексе “женщины, бизнес и право”. Были представлены право. Были представлены проценты безработицы в нашей стране и действия по их снижению, предложения и мнения по предотвращению безработицы.

**Ключевые слова:** Конституционные статьи, реч, указы нашего президента, стратегия, уровень безработиц, качественное образование, льготы для молодежи, бизнес и предпринимательство.

2024-yilni Prezidentimiz tomonidan “Yoshlar va biznesni qo`llab-quvvatlash yili” deb e`lon qilinishi Yangi O`zbekiston orzusini real haqiqatga aylantirish uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi. Kelgusi taraqqiyotimizni belgilab beradigan “O`zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirishni boshladik. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o`z nutqlarida “Inson qadrini ulug`lash, aholimiz manfaatlarini ta`minlash, buning uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish bizning asosiy vazifamiz. Yangi ish o`rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish e`tiborimiz markazida. Xotin-qizlar va nuroniylarni, yordamga muhtoj insonlarni qo`llab quvvatlashga alohida ahamiyat beramiz” deb, alohida urg`u berib shuni takidladi.

**O`zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida fuqarolarning bandligiga alohida urg`u.** O`zbekiston 2023-yilda ijtimoiy va dunyoviy davlat maqomini oldi,

bolalar va ayollarni zo`ravonlikdan himoya qilish bo`yicha ilg`or qonunlar qabul qildi va qonunga ko`pgina o`zgartirishlar kiritildi. Tariximizda birinchi marta umumxalq referendum asosida yangilangan konstitutsiyamizni qabul qildik. Yangi konstitutsiyamizda inson qadri muhim ahamiyatga ega ekanligi ta`kidlandi. Xususan konstitutsiyamizning 43-moddasida davlat fuqarolarning bandligini ta`minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag`allikni qisqartirish choralarini ko`radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag`batlantiradi. Shuningdek 46-moddasida ham har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo`qotganda, ishsizlikda, shuningdek boquvchisini yo`qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta`minot huquqiga ega. So`zlari bejizga qayt etilmadi. Aholini ish bilan ta`minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biridir. Shuning uchun davlatimiz rahbari kiyingi yillarda ishsizlik muammosini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlari bu borada qator ijobiy natijalar bermoqda. Ish bilan bandlik fuqarolarning qonun hujjatlariga zid kelmaydigan o`z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog`liq, ularga ish haqi yoki mehnat daromadi keltiradigan faoliyatdir. Ish joyini yo`qotish ko`p insonlar uchun oilaviy turmush holatining pasayishi va insonga salbiy ruhiy ta`sir ko`rsatadi. Ishsizlik juda ko`plab muammolarga zamin yaratadi. Jinoyatchilik oshadi, oilalarda notinchlik paydo bo`ladi, bu esa davlatni zaif qiladi.

O`zbekistonda ishsizlik tushunchasi 1992-yil “Aholini ish bilan ta`minlash to`g`risida”gi qonuni qabul qilinishi bilan me`yoriy kuchga ega bo`ldi. Mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholining 1.3 mln.ni ishsizlikni tashkil etmoqda, ishsizlik darajasi 8.9% ga, qashshoqlik darajasi esa 17% dan 14.1% ga kamaygan. 2023-yil da bu ko`rsatkich 12% ga kamaydi. Hozirda respublikadagi mavjud mahallalarda 10 ming nafarga yaqin hokim yordamchilari faoliyat yuritib, ular tadbirkorlikni rivojlantirish bo`yich xizmat ko`rsatmoqda. Xususan subsidiyalar ajratish, ish bilan ta`minlash, kasbiy tayyorgarlikka jalb qilish va beznes yuritish ko`nikmalari orqali aholi bandligi ta`minlanmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tahliliga ko`ra, ishsizlik darajasi past bo`lgan hududlarga Toshkent shahri, Navoiy, va Toshkent viloyati kiradi. Jizzax, Samarqand, Surxondaryo viloyati va Qoraqalpog`iston Respublikasi esa ishsizlik darajasi yuqori bo`lgan hududlarga kiradi. Shuningdek, 2023-yilda 5 mln nafar aholi bandligi ta`minlanib, 2mln doimiy ish o`rinlari yaratildi. Ishsizlik inson manfaatlariga to`g`ridan to`g`ri ta`sir qiladigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolalardan biri hisoblanadi. Hozirda ish bilan band bo`lmagan ayyollarimiz uchun “Ishga marhamat” monomarkazlari, kasb-hunarga o`qitish markazlari, faoliyat yuritmoqda, xususan ayollarni ta`limini rivojlantirish maqsadida “ona tadbirkor” davlat dasturini joriy etish, talabga javob beruvchi davlat bog`chalaridagi 2 yoshli bolalarni ham joylashtirish bo`yicha qonun hujjatlariga o`zgartirish kiritishlar ko`zlanmoqda.

Mamlakatimizda ish bilan band bo`lmagan aholining ko`p qismi malakasiz xodimlar va mehnat bozoriga birinchi bor chiqayotgan yoshlarni tashkil qilmoqda. Ammo yurtimizga bilimli, malakali, kadrlar zarur. Shuning uchun yoshlarni oliy ta`lim bilan qamrab olishni yanada kengaytirish maqsadida Prezidentimizning 2023-2024 o`quv yili uchun davlat oliy ta`lim muassasalariga o`qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to`g`risidagi farmoishini qabul qildi. Yoshlarning bandligiga ko`maklashish hamda ularni doimiy ish bilan ta`minlashga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida Prezident farmoni yoshlar uchun katta imtiyozlar yaratmoqda.

Dunyoda ishsizlik global muammo sanaladi. Xususan 2021-yilda dunyoda ishsiz yoshlar soni 75,1 mln kishini tashkil etdi, 2020-yilga nisbatan 4,1 mln kishiga, 2019-yilga nisbatan 8 mln kishiga ko`pdir. 2023-yilda yoshlar o`rtasidagi ishsizlik darajasi 14,9 foizgacha, ishsizlar soni esa 73 mln kishigacha kamaydi. XMT ekspertlarining fikricha, dunyoning barcha mamlakatlarida pandemiya yoshlarning ish o`rinlarini yo`qotishiga asosiy sabab bo`lgan. Eng katta o`shish Shimoliy Amerikada qayd etilgan. O`zbekistonda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning tub maqsadi –bu inson farovonligi, uning munosib turmush tarzini ta`minlash hisoblanadi. Bu esa o`z navbatida davlat tomonidan aholini samarali ish bilan ta`minlash buning uchun barcha shar-sharoitlarni yaratib berish, beznis, tadbirkorlik uchun qulay muhit, investitsiyalar kiritish, sud-huquq tizmining adolatli bo`lishiga bog`liq. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta`kidlaganidek “Inson qachon baxtli bo`ladi – qachonki o`ziga munosib ish o`rnida mehnat qilsa va shunga yarasha daromad topsa. Insonlar baxtli bo`lsa jamiyat ham davlat ham baxtli bo`ladi” deganlar. Aholini munosib va rasmiy ish bilan ta`minlash maqsadida “2021-2030 yillarda aholi bandligiga ko`maklashish”. loyhalar, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o`rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu o`rinda birgina Buxoro viloyatida olib borilayotgan ishlar bilan tanishadigan bo`lsak viloyatda hozirgi kunda 1 milliondan ortiq mehnatga layoqatli aholi bo`lib, shundan 76 ming nafari ishsiz. Har yili mehnat bozoriga 37 mingga yaqin yoshlar kirib kelmoqda. Bularni inobatga olgan holda viloyatda 2023-2025 yillarda aholini to`liq ish bilan ta`minlash maqsad qilingan. Shu maqsadni amalga oshirish borasida 11ta paxta-to`qimachilik va g`allachilik klasterlari va Hindiston bilan hamkorlikda Qorako`l tumanida IT-Klaster tashkil qilish ko`zlanmoqda va aholini ish bilan band qilish kasanachilik, hunarmandchilik, chorvachilik rivojlantirish asosiy maqsad qilib qo`yilmoqda. Hozirda raqamli va axborot texnologiyalaridan foydalanish eng afzal jihatlari bu texnologiyalardan foydalangan holda katta hajimli axborotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash mumkun. Buning natijasida qisqa vaqt ichida ish topish, vaqt va joyidan qa`tiy nazar ish faoliyati bilan bevosita (onlayn) shug`ullanish qo`shimcha daromad olish uchun imkoniyat yaratadi.

O`zbekiston yangi taraqqiyot yo`lini bosib o`tmoqda, ortda qolga yilimizning “Insonga e`tibor va sifatli ta`lim yili” bo`lganligi. Yangi yilimizning esa “Yoshlar va

biznesni qo`llab-quvvatlash yili” deb e`lon qilinishi bugungi yoshlarimiz uchun istidod va bilimlarini ko`rsatish uchun o`z eshiklarini ochdi. Biz har doimo sifatga urg`u berishimiz kerak, agar sifatli ta`lim bo`lsa yutuk kadrlar tayyorlashga asos bo`ladi. Bu esa o`z navbatida ish unimdorligini oshiradi va yoshlarni ish bilan ta`minlash va o`zlari xohlagan ish bilan band bo`lishini ta`minlaydi. Yurtimizda ta`lim tizmini oshirish uchun ta`lim kreditlari joriy qilingan bo`lib unda ayollarimiz uchun foizsiz kreditlar ajratilmoqda bu esa o`z navbatida oliy ma`lumotli ayollarimizning soni ko`payishi va ish bilan band bo`lishiga yurtimizda ayollarning jamiyatdagi o`rnini ta`minlamoqda. Respublikamizda yuqori texnologik zamonaviy sanoat korxonalarini, logistika va infratuzilma tarmoqlari, bog`cha va maktablar, qo`shma korxonalar barpo etilmoqda bu esa yangi-yangi ish o`rinlarini ochilishiga va aholini ish bilan band qilish, ishsizlikni oldini olishdagi chora tadbirlardan biridir. Inson qachonki o`z kasbini sevsagina unda yutuqlarga erishadi. Shunday ekan yoshlarning o`z kasblarini egallashida ularga yo`l ko`rsatish va sifatli ta`lim berish bizning asosiy burchimiz hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Yangi O`zbekiston. <https://www.yuz.uz>
2. thps: kun.uz
3. Norma.uz